

### Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda yuridik shaxslarning huquqiy maqomini aniqlash masalalari

*Juraboyeva Mahbuba Asqarbek qizi*  
*Toshkent davlat yuridik universiteti*  
*Xususiy huquq fakulteti 4-kurs talabasi*  
*e-mail: juraboyevamahbuba@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xususiy xalqaro huquqning subyekti sifatida yuridik shaxslarning huquqiy holati tahlil qilinadi. Xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida yuridik shaxslarni tahlil qilish orqali ularning milliy huquqdagi subyektlardan farqli va o'ziga xos xususiyatlarini shu bilan birga chet el yuridik shaxslarining huquqiy holatining umumiy masalalari yoritib o'tishga harakat qilinadi. Chet el yuridik shaxslarining xalqaro xo'jalik munosabatlaridagi ishtiroki, ularning huquq layoqati, qonuni va muayyan davlatga mansubligini aniqlash masalalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida chet el yuridik shaxslarining huquq layoqati, mamlakatimiz hududida xo'jalik faoliyatida ishtirok etish shakllari, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarining huquqiy holati atroflicha ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** yuridik shaxs, huquq layoqati, inkorporatsiya nazariyasi, o'troqlik nazariyasi, nazorat nazariyasi, ekspluatatsiya markazi nazariyasi, kollizion huquq.

**Абстрактный:** В данной статье анализируется правовой статус юридических лиц как субъектов международного частного права. Путем анализа юридических лиц как субъектов международного частного права предпринята попытка осветить их отличительные и отличные от особенностей национального права особенности, а также общие вопросы правового положения иностранных юридических лиц. Участие иностранных юридических лиц в международных экономических отношениях, вопросы определения их правоспособности, законности и принадлежности к конкретной стране, а также правосубъектности иностранных юридических лиц в Республике Узбекистан, формы участия в экономической деятельности на территории нашей страны, предприятия с иностранным инвестиционным правовым статусом будут рассмотрены подробно.

**Ключевые слова:** юридическое лицо, правоспособность, теория инкорпорации, теория урегулирования, теория контроля, теория эксплуатационного центра, коллизионное право.

**Abstract:** This article analyzes the legal status of legal entities as subjects of private international law. By analyzing legal entities as subjects of international private law, an attempt is made to shed light on their distinctive and different characteristics from those of national law, as well as the general issues of the legal status of foreign legal entities. Participation of foreign legal entities in international economic relations, issues of determining their legal capacity, law and belonging to a specific country, as well as the legal capacity of foreign legal entities in the Republic of Uzbekistan, forms of participation in economic activities in the territory of our country, enterprises with foreign investment legal status will be considered in detail.

**Keywords:** legal entity, legal capacity, theory of incorporation, theory of settlement, theory of control, theory of exploitation center, conflict law.

### Kirish

Jahon miqyosida davlatlarning o'rnini ularda xalqaro munosabatlarning qay tartibda o'rnatilgani bilan bog'liq. Xalqaro munosabatlar davlatlar, shaxslar va tashkilotlar o'rtasida rivojlanib borar ekan, ularni xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solish muammosi vujudga kelmoqda. Xalqaro xususiy huquq subyektlari xalqaro huquqda muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi va xalqaro huquqning normalarini yaratishga, amalda tatbiq etishda qatnashishga qodir mustaqil tuzilma hisoblanadi.

Xalqaro xususiy huquqda subyektlar:

1. Jismoniy shaxslar;
2. Yuridik shaxslar;
3. Davlatlar va boshqa xususiy tashkilotlar

Jismoniy shaxslar huquqiy shaxslar sifatida taniladi va ularning shaxsiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy huquqlari himoya qilinadi. Misol uchun, jismoniy shaxslarning hayotini himoya qilish, ish bilan bog'liq huquqlari, siyosiy faoliyatda ishtirok etish huquqlari kabi xususiy huquqlariga ega bo'lishi mumkin.

Mulkiy munosabatlarga chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik huquqi subyekti sifatida nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar ham qatnashishlari mumkin.<sup>1</sup> Yuridik shaxslar, jumladan, korxonalar yoki tashkilotlar bo'lishi mumkin va ularning moliyaviy, iqtisodiy va boshqa huquqlari himoya qilinadi. Davlatlar ham xalqaro xususiy huquq subyektlari hisoblanadi. Ularning boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlari, hududlari va mamlakatlararo munosabatlari xalqaro xususiy huquqning bir qismi hisoblanadi. Boshqa xususiy tashkilotlar ham xalqaro xususiy huquq subyektlari bo'lishi mumkin. Masalan, xalqaro tashkilotlar, non-governmental tashkilotlar va boshqa transnatsional tashkilotlar xalqaro xususiy huquqda faoliyat ko'rsatishi mumkin va ularning huquqlari ta'minlanadi. Shu sababdan, xalqaro xususiy huquq subyektlari jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, davlatlar va boshqa xususiy tashkilotlar bo'lishi mumkin va ularning huquqlari va murojaatlari xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilinadi. Endi chet el elementi bilan murakkablashgan yuridik shaxslarning xalqaro xususiy huquqdagi huquqiy maqomi to'g'risida fikr yuritamiz.

### Muhokama va tahlil

Yuridik shaxs deganda o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudga da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot tushuniladi.<sup>2</sup> Yuridik shaxslarning yuridik statusi ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi va ularning tashkiliy-huquqiy shakliga bog'liq bo'ladi. Bu holat ularning shartnomaviy munosabatlarga kirishishiga, javobgarlikka tortilishiga va mol-mulkiy javobgarlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Yuridik shaxslar hozirgi kunda faqatgina bir mamlakat doirasida faoliyat olib borish bilan cheklanib qolayotgani yo'q. Turli davlatlarda o'z filiallarini ochishga harakat qilishmoqda. Monopoliyalarning asosiy faoliyatlarini bir necha mintaqalarda amalga oshirishiga qarab, bir necha guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhga chet eldagi ko'pgina filiallar, sho'ba korxonalariga ega bo'lgan milliy jamiyatlar, trest kompaniyalar kiradi. Birinchi guruhning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu tashkilotlar kapital bo'yicha milliy faoliyati bo'yicha xalqaro tashkilot hisoblanadi. Ikkinchi TMK guruhiga ham faoliyat ham kapital bo'yicha xalqaro hisoblanadigan trest va konsernlar kiradi. Uchinchi guruhga yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kartel, sindikat, turli

<sup>1</sup> Xalqaro xususiy huquq. Darslik. TDYI nashriyoti, 2002 488-bet.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/mact/-111189>

xil birlashmalar kiradi.<sup>3</sup> Ushbu turlarni birlashtirib turgan yagona sabab - ularning o'z faoliyatlarini o'ziga davlatlarda ham davom ettirishi hisoblanadi.

Yuridik shaxslar bir necha davlatlarda turli xil shakllarda ifodalanadi. Masalan, Germaniya huquqida ittifoq va muassasalarga bo'linsa, Fransiya qonunchiligida esa ular xo'jalik jamiyatlari va assotsiatsiyalarga ajratiladi. Angliyada yuridik shaxslar korporatsiyalar va yakka hokim korporatsiyalarga bo'linadi. AQSHda yuridik shaxslar ommaviy, notijorat va tijoratchi turlariga bo'linadi.<sup>4</sup> Bizning qonunchiligimizda esa tijoratchi va notijoratchi yuridik shaxslarga ajratiladi. Shunday ekan ularning ham tartibga solish usuli o'ziga xos.

Yuridik shaxslarning huquqiy layoqati to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uning huquq subyekti sifatida o'ziga xosligi, jismoniy shaxs, davlat va boshqa huquq subyektlaridan farqlab turuvchi xususiyatlarini aniqlashga harakat qilishni o'rinli deb topdik. Uydirma nazariyasi XIX asr nemis yuristi K.F.Savini nomi bilan bog'liqdir. Bu nazariya huquqning haqiqiy subyekti sifatida faqat insonni tan oladi. Shunga qaramasdan pozitiv huquq huquqqa layoqati bo'lgan shaxslarning doirasini toraytirishi yoki, aksincha, sun'iy huquq subyektlarini tashkil qilish evaziga, uni kengaytirishi mumkin. Bunga binoan yuridik shaxs oddiy uydirma orqali tuzilgan sun'iy huquq subyektidir. Mazkur subyekt maxsus yuridik maqsadlar uchun tuziladi. Bu yerda yuridik shaxsning huquqiy munosabatlarida huquq subyektligining yagona egalari jismoniy shaxslar real qatnashchilari bo'la oladilar. Yuridik shaxs oddiy uydirma sifatida layoqatli emasdir.<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 41-moddasiga ko'ra esa yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi. Yuridik shaxslar o'zlarining huquq va muomala layoqatiga ega bo'lishi bilan fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirishishni boshlaydilar.

Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarda yuridik shaxslarning huquqiy maqomini aniqlash masalasi xalqaro xususiy huquqning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bunday munosabatlarda yuridik shaxslarning huquqiy maqomini belgilash bir qator muammolarni keltirib chiqaradi, chunki davlatlar o'z milliy qonunchiliklariga asoslangan turli mezonlardan foydalanadi. Yuridik shaxslarning bu xususiyati xalqaro xususiy huquqda shaxsiy statut va yuridik shaxsning millati deb ataladi. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy aloqalarning to'laqonli ishtirokchisi bo'lgan firma va tashkilotlar har vaqtda biron-bir davlat, uning huquq-tartibot, qonun-qoidalariga bog'liqdir.<sup>6</sup> Xalqaro xususiy huquqda yuridik shaxslarning shaxsiy qonunini belgilashda yagona fikr mavjud emas. Bu borada bir necha qarashlar mavjud hisoblanadi:

1. Inkorporatsiya nazariyasi;
2. Ekspluatatsiya markazi nazariyasi;
3. O'troqlik nazariyasi;
4. Nazorat nazariyasi.

---

3 Xalqaro xususiy huquq: Darslik/Mualliflar jamoasi//y.f.d., dot. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T:TDYU, 2019.-354 bet.

4 Гражданское и торговое право капиталистических государств: Учебник.-Зезд., перераб. и доп.-М.: Междунар. отношения, 1993. -С. 79-84

5 .Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. 85-bet.

6 Лунц. Л.Аю Марышева Н.И. Садиков О.Н. Международное частное право: Учебник.-М: Юрид.лит, 1984

Inkorporatsiya doktrinasiga ko'ra, yuridik shaxslarning "millati" asos qilib olingan. Unga ko'ra ularning shaxsiy statuti tashkil qilingan joyi va ro'yxatdan o'tgan davlatning huquqidir. Ushbu doktrina anglo-amerika huquqiy tizimiga mansub davlatlarda keng tarqalgan. Bu nazariyaning asosiy kamchiligi shundaki, yuridik shaxsning tashkil etilishi va uni faoliyat ko'rsatish joyi o'rtasida uzviy aloqa yo'q. Chunki yuridik shaxs bir davlatda tashkil etilsa-da, boshqaruv markazi boshqa davlatda bo'lishi, asosiy faoliyatini esa umuman uchinchi davlat hududida amalga oshirishi mumkin. Bu esa yuridik shaxsning o'z faoliyatini amalga oshirayotgan davlat hududidagi qonunchilikka rioya etmasligiga olib kelishi mumkin. Ushbu nazariyaning ustun jihati esa uni amaliyotda qo'llashning va tartibga solishning soddaligidir.

Ekspluatatsiya markazi nazariyasida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni deb uning o'z faoliyatini amalga oshirayotdan mamlakati tushuniladi. Ushbu nazariyaning kamchiligi uning noaniqligi va o'zgaruvchanligidir. Chunki agarda yuridik shaxs bir necha davlatda faoliyat yuritisa, qo'llaniladigan huquq bilan bog'liq muammo yuzaga kelishi mumkin.

O'troqlik nazariyasi esa yuridik shaxsning ma'muriy markazi qayerda bo'lsa o'sha davlatning qonuni qo'llaniladi. Bu doktrinaning qo'llashdagi asosiy muammo uning tan olinmasligida bo'lishi mumkin. Masalan, yuridik shaxs inkorporatsiya nazariyasi amal qiladigan mamlakatda ro'yxatdan o'tgan, lekin boshqaruv organlari o'troqlik nazariyasi amal qiladigan mamlakatda bo'lganida, o'troqlik nazariyasi amal qiladigan mamlakat tan olinmasligiga sabab bo'ladi.

Nazorat doktrinasida esa yuridik shaxs kim tomonidan boshqarilayotganiga bog'liq hisoblanadi. Boshqaruv organlarining qaysi davlatga mansubligi uning shaxsiy qonunidir.

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxsning shaxsiy qonuni Fuqarolik kodeksining 1175-moddasida belgilangan bo'lib, yuridik shaxs qaysi mamlakatda ta'sis etilgan bo'lsa, shu mamlakatning huquqi mazkur yuridik shaxsning qonuni hisoblanadi. Shuningdek, 1176-moddasida yuridik shaxsning fuqarolik huquq layoqati yuridik shaxsning qonuni bilan belgilanishi keltirilgan. Nazariyalar orqali qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasidagi qonunchilik inkorporatsiya nazariyasiga o'xshab ketadi. Chunki ushbu nazariyada ham yuridik shaxs qaysi davlatda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa o'sha davlatning huquqi qo'llanilishi belgilangan hisoblanadi. Fuqarolik huquqida yuridik shaxslarni kollizion huquqiy tartibga solish Fuqarolik kodeksining 1177-moddasida belgilangan bo'lib, unga muvofiq O'zbekiston Respublikasining qonunida chet el yuridik shaxslari uchun boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasida fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan tadbirkorlik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirishi nazarda tutilgan. Demak, chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini olib bormoqchi bo'lsa, qonunchilik talablariga rioya etishi kerak.

### Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuridik shaxslarning shaxsiy qonuni ularning davlatlardagi huquqiy maqomini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham yuridik shaxsning huquqiy maqomini belgilashga alohida e'tibor qaratiladi va qonun bilan belgilab qo'yiladi. Adabiyotlarda bu to'g'risida bir necha nazariyalar borligini yuqorida ko'rib o'tdik. Fikrimizcha, inkorporatsiya nazariyasi qulay va boshqarish uchun oson, ya'ni yuridik shaxs qayerda ta'sis etilgan bo'lsa, o'sha joy qonuni bilan tartibga solinishi kerak, ammo bir kamchiligi shundaki, bunday bo'lsa ba'zi yuridik shaxslar boshqa yerlarda ham filiallari bo'lsa, o'sha yerdagi qonunlarga rioya etmasligi mumkin. Shuning uchun ham bu nazariyaning ham qulay emas tomonlari bor. O'zbekiston Respublikasida ham yuridik shaxsning qonuni Fuqarolik kodeksimizda belgilab qo'yilgan va inkorporatsiya nazariyasiga ham o'xshab ketadi.

### Foydalanilgan manbalar:

1. Xalqaro xususiy huquq. Darslik. TDYI nashriyoti, 2002 488-bet.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

2. Xalqaro xususiy huquq: Darslik/Mualliflar jamoasi//y.f.d., dot. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. T:TDYU, 2019.-354 bet.

3. Гражданское и торговое право капиталистических государств: Учебник.-Зезд., перераб. и доп.-М.: Междунар. отношения, 1993. -С. 79-84;

4. lex.uz;

5. Лунц. Л.Аю Марышева Н.И. Садилов О.Н. Международное частное право: Учебник.-М: Юрид.лит, 1984

6. Fuqarolik kodeksi